

“IKKI ESHIK ORASI” ASARIDA MILLIY XOS SO‘ZLAR VA ULARNING TARJIMADA IFODALANISHI

Abdullayeva Dinora Raimjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

“Mushoira” klubi a’zosi

abdullayevadinora977@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada realiya tushunchasining mohiyati, turlari, uning tasnifi hamda badiiy matnda tutgan o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi madaniy realiyalar tahlilga tortilgan. Asarda xalqning turmush tarzi, madaniyati va leksik boyligi aks etgan. Maqolada realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning inglizcha tasniflari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Madaniy realiya, transkripsiyalash, do‘ppi, mahsi, tabib, hashar, lingvistik birlik.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируется сущность понятия реальности, его виды, классификация и место в художественном тексте. В частности, анализируются культурные реалии в романе Уткира Хашимова «Между двумя дверями». Произведение отражает образ жизни, культуру и словарный запас народа. Также в статье рассматриваются проблемы, возникающие в процессе перевода реалий на английский язык, и их английская классификация.

Ключевые слова: культурная реальность, транскрипция, доппи, махси, табиб, хашар, языковое единство.

Abstract. In this article, the nature of the concept of reality, its types, its classification, and its place in the literary text are scientifically analyzed. In particular, cultural realities in O'tkir Hashimov's novel "Between Two Doors" are analyzed. The work reflects the lifestyle, culture and vocabulary of the people. The article also considers the problems that arise in the process of translating realisms into English and their English classification.

Keywords: Cultural reality, transcription, doppi, mahsi, tabib, hashar, linguistic unity.

Badiiy asarlarda muayyan xalqning madaniyati, dunyoqarashi, urf-odatlar, turmush tarzi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi birliklar realiyalar yoki milliy xos so‘zlar deb ataladi. Realiyalar faqat shu xalq hayotiga xos bo‘lgan hodisalar, tushunchalar va an‘analarni ifodalaydi. Shuning uchun ular boshqa tillarda ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosi bo‘lmagan birliklar sifatida tavsiflanadi. Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan realiyalar

murakkab hodisa bo‘lib, ularni boshqa til va madaniyatga o‘girish jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Chunki realiyalar boshqa xalqlar uchun notanish bo‘lgan ijtimoiy-madaniy mazmunni o‘z ichiga oladi. Ularning asl mohiyati ko‘pincha ma’no jihatidan to‘laonli mos keladigan birlik bilan ifodalanmaydi. L.S.Barxudarovning yozishicha: “Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobilga ega bo‘lmasligidir” [5].

Realiya so‘zi lotincha “realia” dan olingan bo‘lib, u ashyoviy, haqiqiy degan ma’nolarni anglatadi. Lingvistik atamalar lug‘atida unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so‘zlar, muayyan tilda mulqot qilish xususiyatlarini ifodalovchilingvistik birlik” deyiladi[4].

Ko‘plab badiiy asarlar orasida O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani madaniy realiyalar eng ko‘p qo‘llangan nasriy asarlardan biri sifatida alohida ajralib turadi. Asardagi har bir realiyalar o‘zbek xalqining urf-odatlarini, ikkinchi jahon urishi davridagi ijtimoiy muhit haqida to‘liq ma’lumot berilgan. Bu asarda tinchlikka tahdid soluvchi urushning og‘ir oqibatlarini ko‘rsatib beriladi. Urushning dahshatlari har bir ota-onaning qalbini yaralaydi, ularga qayg‘u va alam keltiradi. Ushbu hikoya umuminsoniy qayg‘u va og‘riqlarni aks ettirib, o‘quvchining qalbiga chuqur ta’sir qiladi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlarini mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabrbardoshi haqida so‘zlaydi[3].

Madaniy realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimondan alohida bilim va salohiyat talab qilinadi. Avvalo, tarjimon romanda tasvirlangan o‘sha davrdagi ijtimoiy muhit, xalqining madaniy qadriyatlarini va urf-odatlarini haqida yetarli darajada tasavvurga ega bo‘lishi zarur. Chunki realiyalar xalqning madaniyati, kundalik hayoti va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq. Ayrim realiyalarni ingliz tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish imkonini bo‘lmaydi, shuning uchun realiyalar ko‘p hollarda tarjima qilinmaydi va so‘z yonidan yoki matn ostidan kitobxonga realiyalarning to‘liq tasnifi tushuntiriladi. Masalan, ruscha “tansevat” so‘zi o‘zining birgina ma’nosi bilan o‘zbekcha “raqsga tushmoq” birikmasiga mos ekvivalent bo‘la olar edi. Uning boshqa bir ma’nosi - erkak va ayolning bel-u qo‘l ushlab davrada aylanishi, bu usulda raqsga tushish o‘zbeklarga xos bo‘lmagan tufayli, o‘zbek tilida o‘z ekvivalentiga ega emas. Transkripsiyalash – ya’ni nusxa ko‘chirish. Asl so‘z boshqa alifboda yozilsa, bu transliteratsiya deb ataladi. O‘rganilgan tilning talaffuz qoidalariga muvofiq transkripsiya qilish[3].

Matndagi realiyani quyidagi mezonlar bilan aniqlash mumkin:

1) so‘zning tarjima tilida doimiy ekvivalenti yo‘q, bu uning moddiy ma’nosini bildiradi;

2) so‘z asliyat til madaniyatiga xos bo‘lgan va tarjima til madaniyatiga yot obyekt yoki hodisani bildiradi[4].

O‘tkir Hoshimov asarida nafaqat milliy, balki ijtimoiy realiyalar ham keng o‘rin olgan. Ayniqsa, o‘zbek xalqining o‘tgan asr oxiridagi ijtimoiy hayoti, iqtisodiy qiyinchiliklar va jamiyatdagi o‘zgarishlar tasvirlanadi.[2] “Ikki eshik orasi” romanidagi realiyalar va ularning inglizcha tarjimalari:

1. Mahsi–bu yumshoq, pishiq, qalin qo‘y yoki echki terisidan tikilgan, poshnasiz, baland qo‘njli an‘anaviy oyoq kiyimidir, hozirda kalta qo‘njli turlari ham mavjud.

Xolposh xola bachkana mahsi kiygan oyog‘ini bita-bita bosib, ichkariga kirib ketdi (67-bet).

Aunt Kholposh came in, stepping on her leg with wearing ugly mahsi(a type of shoes) (69-bet).

Ammo mahsi so‘zining ingliz tilidagi tarjimasi to‘liq ma‘noni anglatmagan. Inglizchada faqat “a type of shoes”— ya‘ni oyoq kiyimlarning bir turi sifatida izohlangan, xolos.

2. Yor-yor—to‘ylarda kelinlar uchun kuylanadigan xalq qo‘shig‘i.

Biri ingichka biri yo‘g‘on ovozda tag‘in yor-yor aytishdi (107-bet).

One in a thin, one in a thick voice, they said “yoy-yor” (traditonal music for brides in wedding days) (109-bet).

“Yor-yor” o‘zbekchadan inglizchaga to‘g‘ri tarjima qilingan.

3. Tabib–xalq tabobati bilan bemorlarni davolaydigan inson. Vrachdan farqi shuki, tabiblar hech qanday o‘qishni tamomlamagan, diplomi yoq kishi. Shomurodni kuzatgunimcha kech bo‘lib ketdi-da... Aytgancha, Komil tabib ham o‘g‘lini jo‘natdi (145-bet).

I was late till I pursue shomurod, Komil tabib (local doctor who has no diploma) also accompany his son (146-bet).

“Tabib” so‘zi o‘zbekchadan inglizchaga to‘g‘ri tarjima qilingan.

4. Taxmon–devorga o‘rnatilgan, ko‘rpa-to‘shak va boshqa buyumlarni yig‘ib qo‘yish uchun mo‘ljallangan maxsus tokcha. Xayolimga shu o‘y ilinishi bilan taxmondagi qutini titkilashga tushdim (147bet).

As soon as I think about this, I began to shuffle through the box in the tahmon (the place things are piled up) (150-bet).

“Taxmon” so‘zi o‘zbekchadan inglizchaga to‘g‘ri tarjima qilingan. “Pilled up” so‘zi o‘zbekchada “ustma-ust yig‘ilgan, to‘plangan” degan ma‘noni anglatadi.

5. Hashar–bu yumushni bajarish uchun ko‘p sonli odamlarning ixtiyoriy, hamjihatlikdagi yordamiga asoslangan. Ya’ni qadimiy urf-odat hisoblanadi. — Iya siz ham hasharga keldingizmi? -dedi Zakunchi unga qarab (158-bet).

— Yes, did you come to the hashar (activity done by volunteers to clean surroundings together) too?” - Zakunchi looked at him (159-bet).

“Hashar” o‘zbekchadan inglizchaga to‘g‘ri tarjima qilingan. “Volunteers” so‘zi o‘zbekchada “ko‘ngilli, o‘zi xohlovchi” degan ma’noni anglatadi. Ammo hozirgi kunda “hasharchilar” so‘zi “volunterlar” so‘ziga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan.

6. Do‘ppi–bu astarli, turli iplar bilan kashta tikib bezatilgan, to‘rtburchak yoki yumaloq shakldagi o‘zbek milliy bosh kiyimi. Nuqul do‘ppisiga loy yopishgan o‘g‘lim ko‘z oldimdan ketmaydi (171bet).

The mud on the Nuqul doppi(it is Uzbek traditional cap which is worn by men)

I will never forget my clinging son (169-bet).

“Do‘ppi” so‘zi o‘zbekchadan ingliz tiliga tarjima qilinganda to‘liq ma’noni anglatmagan. Negaki, o‘zbeklarda do‘ppini faqat erkaklar emas, balki ayollar ham kiyadi. Ikkinchi tomondan qarasak, “nuqul” so‘zi inglizchaga tarjima qilinmagan. Bu so‘z- “doim” degan ma’noni anglatadi, Inglizchada esa “always” deb tarjima qilinadi.

Demak, madaniy realiyalarni ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish anchagina qiyin masala hisoblanadi. O‘zbek tili bilan ingliz tili bir-biriga qardosh tillar emas, ulardagi milliy tushunchalar bir-birlariga yoddir. Badiiy asarlardagi realiyalarni tushunarli qilib xalqqa yetkazib berish tarjimonga bog‘liq. Tarjimonning betarfligi masalasi tarjima nazariyasida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tarjimon matnni tarjima qilayotganda o‘zining shaxsiy fikrlarini, e’tiqodini, siyosiy yoki diniy qarashlarini aralashtirmasligi kerak. Uning asosiy vazifasi — muallifning fikr va maqsadini imkon qadar aniq va xolis yetkazib berish. Ayniqsa, siyosiy, diniy yoki ijtimoiy nozik mavzularni tarjima qilishda tarjimonning betarafligi nihoyatda muhimdir.

Shunga qaramay tarjimonning betaraf bo‘lishi har doim ham oson emas. Ba’zan matn mazmuni tarjimonning o‘z qarashlari bilan ziddiyatga kirishadi.[7]

Asarda qo‘llangan madaniy, maishiy va ijtimoiy realiyalar voqealarning milliy rang-barangligini kuchaytiradi. Muallif turli realiyalardan foydalanar ekan, o‘zbek xalqining o‘tgan davrdagi qarashlarini, oilaviy muhitini va an’anaviy turmush tarzini o‘ziga xos vositalar orqali ifodalaydi. “Ikki eshik orasi”da uchraydigan “tabib”, “do‘ppi”, “hashar” kabi realiyalar milliylikni yorqin aks ettirib, o‘quvchini o‘zbek xalqi hayotining o‘ziga xos jihatlari bilan tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O‘. “Ikki eshik orasi”. “Adabiyot uchqunlari”. Toshkent - 2018.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/realiya-o-zbek-adabiyotida-o-tkir-hoshimovning-dunyoning-ishlari-asarida-realiyalar-tahlili>
3. Normurodova Z., Temirova D., Davlatova D., Normurodova N. Journal of new century innovations. "Ikki eshik orasi"- romanidagi realiyalar tahlili Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Universiteti talabalari
https://scientific-jl.org/index.php/new_14_Volume-63_Issue-4 _ October-2024
4. Qurbonova N.S. "Milliy xos so‘zlar yoki realiyalar va ularning tarjimada aks etishi" "Экономика и социум" №12(91)-1 2021 www.iupr.ru
5. Qutbiddinova N. R. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 771 Realiza tushunchasi va uning tilshunoslikda o‘rganilishi.
6. http://rasul.template.uz/sites/default/files/between_the_doors_utkir_hashimov.pdf
7. Oymamatova N. International scientific and practical conference “professional development of the personality of the xxi century in the system of continuous education: international experience, practice and innovative approaches”, june 21-22, 2025 tarjimashunoslikdagi global muammolar: realiyalar, iboralar va tarjimonning
Betarafligi. “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti 1-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15734490>